

XITOY-O'ZBEK TIL KOMBINATSIYASIDA KOMPRESSIYA STRATEGIYASI TURLARINING QO'LLANILISHI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7461136>

E'zoza ALIMOVA,
TDSHU 1-kurs magistranti,
Toshkent, O'zbekiston
Tel: +998978314333;
E-mail: ezoza61363@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqola sinxron tarjimada statik omillarga bog'liq strategiyalardan biri kompressiya strategiyasining turlari yoritilgan. Chernov fikriga ko'ra, kompressiya bo'g'inli kompressiya, leksik kompressiya, semantik kompressiya sintaktik kompressiyaga bo'linadi. Maqolada ushbu strategiyalarning xitoy-o'zbek til kombinatsiyasida qo'llanilishi, ikkita mos keladigan kompressiya turlariga misollar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *sinxron tarjima, kompressiya, leksik kompressiya, semantik kompressiya, sintaktik kompressiya, bo'g'inli kompressiya.*

Аннотация. В данной статье описаны виды стратегий сжатия, одна из стратегий, связанных со статическими факторами, при синхронном переводе. По словам Чернова компрессия подразделяется на силлабическую компрессию, лексическую компрессию, смысловую компрессию и синтаксическую компрессию. В статье представлены применение этих стратегий в китайско-узбекском языковом сочетании, примеры двух соответствующих видов компрессии.

Ключевые слова: *синхронный перевод, компрессия, лексическая компрессия, семантическая компрессия, синтаксическая компрессия, силлабическая компрессия.*

Abstract. *This article describes the types of compression strategies, one of the strategies related to static factors, in simultaneous translation. According to Chernov, compression is divided into syllabic compression, lexical compression, semantic compression and syntactic compression. The article presents the application of these strategies in the Chinese-Uzbek language combination, examples of two corresponding types of compression.*

Key words: *simultaneous translation, compression, lexical compression, semantic compression, syntactic compression, syllabic compression.*

Sinxron tarjima tadqiqotchilarining aksariyati strategiya deganda asliyat tilidan tarjima tiliga o'girishda duch keladigan muammolarni hal

qilish tartibini tushunadi. Sinxron tarjimada strategiya - tarjima vazifalarini amalga oshirish uslubi bo'lib, bu ma'ruzachining madaniy va shaxsiy xususiyatlarini, baza darajasini, til ustkategoriyalarini va ostkategoriyalarini hisobga olgan holda xabar yuboruvchining kommunikativ maqsadini asliyat tilidan tarjima tiliga adekvat tarzda yetkazib berishdan iborat.

Mazkur izoh shun ko'rsatadiki, strategiya tushunchasi ham lisoniy, ham g'ayrilisoniy omillarni o'zida jamlab, bu omillarning har biri tarjimaning ma'lum bir parchasida u yoki bu (yoki bir vaqtida bir necha) uslublar tanlovini shart qilishi mumkin. Tajribali tarjimonning strategiya tanlovi ko'pincha avtomatizm rejimida amalga oshadi. Bundan tashgari, strategiya asliyat tilidan tarjima tiliga tarjima qilishda adekvatlik va mugobilikkha erishish vositasi bo"lganligi sababli sinxron tarjimon tomonidan bir vaqtning o'zida bir necha strategiyalar qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, asos sifatida strategiyalardan biri olinib, boshqalari esa qo'shimcha bo'lishi mumkin. Masalan, dastlab tanlab olingan uslub istalgan natijalarga olib kelmasa, ana shu qo'shimcha strategiya murakkab vaziyatdan chiqishning vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin [Hamidov 2022:31].

Tarjima nazariyasida kompressiya deganda qisqaroq/zichroq shakl berish maqsadida dastlabki matnni o'zgartirish tushuniladi. Matn kompressiyasiga iboraning ortiqcha unsurlarini olib tashlash, kontekst va undan tashqari vaziyatdan to'ldirilishi mumkin bo'lgan unsurlarni qo'shmaslik hamda iboraning yig'iqroq shakllaridan foydalanish yo'li bilan erishiladi.

Kompressiya strategiyasining assosi bu 2 ta bosh omildir, ular sinxron tarjimaning ajralmas qismidir. Birinchisi, predmet vaziyati bo'lsa, ikkinchisi tillarning har xilligidir. Predmet vaziyatiga ijtimoiy madaniy jabhani ham kiritish lozim, chunki L.Visson so'zlari bilan aytganda, tarjima bu avvalambor, madaniyatlar tarjimasidir. B.Uorf esa "Turli til sohiblari dalil va hodisalarni turlicha qabul qiladilar, chunki bu hodisalar ularning tilida har xil ifodalangan va shakllantirilgan", deb ta'kidlaydi. Demak, ingliz va o'zbek tillarida bir xil dalil va hodisalar turlicha tasvirlanishi mumkin [Ismatullayeva 2021:68].

Bir qator mualliflar, masalan, E.V. Breus, V.S. Vinogradov, L. Visson, V.N. Komissarov, L.K. Latishev, R.K. Minyar-Beloruchev, G.V. Chernov

o‘z asarlarida nutqdagi kompressiya masalasini ko‘rib chiqadi. I.V. Gurin va A.F. Shiryaevning ta’kidlashicha, nutqni siqish "ma’ruzachining kommunikativ vazifasiga zarar etkazmasdan matnning (xabarning) hajmini (bo‘g‘in uzunligini) qisqartirish vositasi" [Shiryayev 1979:83]

L.Visson tarjimonda nutqni siqishning u yoki bu usulini qo‘llash uchun sabablar bo‘lgan quyidagi holatlarni aniqlaydi:

1. Asliyat tilida takrorlar mavjud.

2. O‘rganilayotgan tilda hech qanday ma’noni anglatmaydigan so‘zlar bor.

3. Orator juda tez gapiradi.

4. Mavzu holati bir xil fikrni kamroq so‘z bilan ifodalashga imkon beradi, bu esa vaqt ni tejashga va shunga mos ravishda kiruvchi semantik guruhlarga to‘liqroq e’tiborni qaratish qobiliyatiga olib keladi [Visson 1999:73]

Jonli nutqni qisqartirish va asl ma’nosini berish mahorati sinxron tarjimon san’atidagi eng birinchi va muhim mahoratlardan biridir.

Amalga oshirish uslubiga ko‘ra, sinxron tarjimada kompressiyasi quyidagilarga bo‘lish mumkin: 1) bo‘g‘inli kompressiya; 2) sintaktik kompressiya; 3) leksik kompressiya; 4) semantik kompressiya [Hamidov 2022:88]

Sinxron tarjimada siqish an'anaviy ravishda tarjima faoliyatining ushbu turini amalga oshirish imkoniyatini ta’minlash vositalaridan biri sifatida qaraladi va "bir xil mazmunni ifodalash uchun nutq va til vositalarini tejash" deb ta’riflanadi. Sinxron tarjimada (TS) siqilish darajasini o‘lchash vositasi sifatida chiqish xabarining (tarjima qilingan matn - PT) bo‘g‘in qiymatini asl xabarning (asl matn - IT) bo‘g‘in qiymatini taqqoslashdan foydalilanadi. A.F. Shiryaev nutqni siqishga quyidagicha ta’rif beradi: "Notiqning o‘ziga qo‘ygan vazifasiga jiddiy zarar yetkazmasdan xabarning ovozini pasaytirish usuli siqilish (nutqni siqish) deb ataladi" [Shiryayev 1999:83]. I.V. Poluyan juda to‘g‘ri ta’kidlaydiki, sinxron tarjimaga nisbatan chiqish xabarini siqish haqida gapirish qiyin, chunki sinxron tarjimonning ishlashi paytida chiqish xabari hali tugallangan shaklda mavjud emas.

Boshqa tillarda bo‘lgani kabi xitoy-o‘zbek tillari kombinatsiyasida ham kompressiya strategiyasi qo‘llanilishi kuzatiladi. Quyida ba’zi bir

yuqorida sanab o‘tilgan kompressiya turlarini xitoy-o‘zbek tili misolida keltiriladi.

1. Semantik kompressiya – takroriy va ortiqcha so‘zlarni qisqartirish hisoblanadi.

Misol: 夫人夫人小心。

Fürén fürén xiăoxīn

Tarjima: “Xonim, ehtiyot bo ‘ling!”

So‘zma-so‘z tarjima: “Xonim, xonim, ehtiyot bo ‘ling!”

Bu misolda *Xonim* so‘zi xitoy tilida ikki marotaba takroriy qo‘llangan. Ammo o‘zbek tiliga tarjima qilishda semantik kompressiya qo‘llanilgan. Natijada matn asliyati yo‘qolmagan, tarjimaning o‘z ma’nosи to‘liq yetkazib berilgan.

Misol: 大人！大人！不好了大人！

Dàrén! Dàrén! Bù hăole dàrén!

Tarjima: “Oliy janoblari, falokat yuz berdi!”

So‘zma-so‘z tarjima: “Oliy janoblari, oliy janoblari, falokat yuz berdi, oliy janoblari!”

Bu gapda so‘zlarni qisqartirish yuzaga kelgan. Negaki xitoy tilida *Oliy janoblari* so‘zi uch marotaba takroriy kelgan.

Semantik kompressiya xitoy-o‘zbek tilida juda ko‘p qo‘llaniladi. Sababi xitoyliklar bir so‘zni qayta-qayta takroriy ma’noni kuchaytirish, bo‘rttirish maqsadida qo‘llashadi. Ammo o‘zbek tiliga tarjima jarayonida taftalogiya yuz bermasligi uchun, tarjimon bu narsadan qochib, kompressiyani qo‘llaydi.

Misol: 你这带了一张白纸来你什么意思？

Nǐ zhè dàile yī zhāng bái zhǐ lái nǐ shénme yìsi

Tarjima: “Bo ‘sh qog ‘oz? Bu nima degani?”

So‘zma-so‘z tarjima: “Sen bo ‘sh qog ‘oz olib kelding, nimani nazarda tutyapsan?”

Bu yerda tarjima jarayonida so‘zlar tushib qoldirilgan, matnning asl ma’nosи albatta o‘zgarmagan holda. Asliyat tilida “*Sen bo ‘sh qog ‘oz olib kelding*” parchasi, “*Bo ‘sh qog ‘oz?*” deb tarjima qilingan.

2. Bo‘g‘inli kompressiya – bir necha imkoniyatlар so‘zlar ichidan eng qisqasi. Bu kompressiya misoliga bir nomlarning qisqarishi beriladi. Xitoy tilida bu kompressiya turi xitoy tilida uchramaydi.

3. Leksik kompressiya – bitta fikrni so‘zlarning kamroq soni bilan ifodalash hisoblanadi.

Misol: 上海合作组织成立于 2001 年 6 月，是由中国、俄罗斯、哈萨克斯坦、吉尔吉斯斯坦、塔吉克斯坦、乌兹别克斯坦等 6 个创始成员国成立的地区性国际组织。

Shànghǎi hézuò zǔzhī chénglì yú 2001 nián 6 yuè, shì yóu zhōngguó, èluósī, hāsàkè sītān, jí'ěrjísī sītān, tǎjíkè sītān, wūzībiékè sītān děng 6 gè chuàngshǐ chéngyuán guó chénglì dì dìqū xìng guójì zǔzhī.

Tarjima: *SHHT 2001-yil iyun oyida tashkil etilgan. U Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va O‘zbekiston kabi oltita ta’sischi a’zo tomonidan tashkil etilgan mintaqaviy xalqaro tashkilotdir.*

4. Sintaktik kompressiya – qisqaroq konstruksiyani tanlash. Tarjimon bu kompressiyani qo‘llashi ma’ruzachi matnidagi qisqa gaplarni va iboralarni olib tashlab, asosiy ma’lumotni auditoriyaga yetkazish hisoblanadi.

Misol: 让我们大力弘扬“上海精神”，推动上海合作组织发展行稳致远，共同建设和平、稳定、繁荣、美丽的美好家园！

Ràng wǒmen dàlì hóngyáng “shànghǎi jīngshén”, tuīdòng shànghǎi hézuò zǔzhī fǎ zhǎn xíng wěn zhìyuǎn, gòngtóng jiànshè hépíng, wěndìng, fánróng, měili dì měihǎo jiānyuán!

Tarjima: Shanxay ruhini biz bilan birga olib boring, tinchlik, barqarorlik, farovonlik hukm suradigan umumiy baxtli uy quring.

Haqiqatdan ham X.Hamidovning ta’kildashiga ko‘ra, yuqorida keltirib o‘tilgan kompressiyaning bu turlari to‘liq yoki qisman mos keladi. Misol uchun xitoy-o‘zbek tillari kombinatsiyasida asosan kompressiyaning uch turi mos kelsa, faqatgina bir turi bo‘g‘inli kompressiya usuli mos kelmasligi mumkin.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, sinxron tarjima vaqt chegarasi va xotira tufayli tarjimon uchun ma’suliyatli ish hisoblanadi. Bundan kelib chiqqan holda shunday xulosalarga kelindi:

a) kompressiya strategiyasi foydali hisoblanib, bu tarjimonga vaqtini hamda kuchni tejashga yordam beradi;

b) xitoy tilidan tarjima jarayonida kompressiya, asosan, takroriy so‘zlarni qisqaritirishda qo‘llaniladi;

c) kompressiya strategiyasining ham chegaralari bo‘lib, unda ba’zi kerakli ma’lumotlarni shunchaki chetlab o‘tib bo‘lmaydi. Siqish ya’ni kompressiya strategiyasini qo‘llash nazorat ostida bo‘lishi kerak, degan xulosalarga kelindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Ismatullayeva, N. R. (2013). Sinxron tarjima fanidan ma’ruza matnlari. Tashkent, 2013-55 p.
2. Hamidov X. (2022). Sinxron tarjima nazariyasi va amaliyoti. *Toshkent*, 2022-88 b.
3. Chernov, G. V. (2004). Inference and anticipation in simultaneous interpreting: a probability-prediction model. Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing Company.
4. Ширяев А.Ф. Синхронный перевод: Деятельность синхронного переводчика и методика преподавания синхронного перевода. М.: Воениздат, 1979. 183 с.
5. Виссон. Л. Синхронный перевод с русского на английский. – М.: Р. Валент, 1999. – 243 с.
6. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. Theoretical & Applied Science, (8), 107-110.
7. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND’S VARDAAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.
8. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. History of Translation in India, 431.
9. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(4).
10. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 534-543.